

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA DAVLATNING YAGONA AXBOROT SIYOSATINI YURITISH FAOLIYATI

Jurakulov Jamol Komilovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi.

E-mail: jurakulovjamol904@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda axborotlashgan jamiyatda davlatning yagona axborot siyosatini yuritish pozitsiyasi axborot madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishni borasida olib borilayotgan tizimli ishlar mazmun va mohitaga atroflicha to'xtalib, ilmiy falsafiy fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot, jamiyat, davlat, internet, axborotlashgan jamiyat, ma'naviyat, axloq.

Аннотация: В данной статье представлены позиции проведения единой информационной политики государства в информационном обществе, содержание и контекст системной работы по развитию информационной культуры, информационно-коммуникационных технологий, научно-философские взгляды.

Ключевые слова: информация, общество, государство, Интернет, информационное общество, духовность, этика.

Annotation: In this article, the position of conducting a unified information policy of the state in the information society, the content and context of systematic work on the development of information culture, information and communication technologies, and scientific and philosophical opinions are presented.

Key words: information, society, state, Internet, information society, spirituality, ethics.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Axborotlashgan jamiyat insonlarning barcha faoliyatiga hamda jamiyatdagi barcha sohalariga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Jumladan axborot oqimining ortishi yaniy ko'payishi axborotga bo'lgan jamiyat qiziqishini pasaytirmaydi. Axborot oqimi ko'pligi tarmoqlanishi bugungi kun nuqtaiy nazaridan klasifikatsiyalashuvi natijasida turli axborotlarni sohalar bo'yicha ajratishni vas hu soha vakillari tomonidan berilgan

axborotning to'g'riligi yoki aksincha yolg'onligini tekshirish bir muncha qiyinliklarni keltirib chiqarmoqda. Axborotning ko'payishi ma'lum soha vakillarining qisqarishiga ham olib keladi. Sababi esa axborotni saralashda inson omiliga extiyoj kamayishi, axborot saralashda zamonaviy texnologiya deb ataydigan kompyuterlardagi maxsus dasturlar inson omiliga nisbatan bir muncha ish ko'fissenti ortishi muqarrardir.

Jamiyatning xolis va to'g'ri axborot olishida birinchi mas'uliyatni davlat o'z zinmasiga olsa davlat ichki va tashqi xavflarni oldindan bilishi va unga qarshi choralar ko'rishi ortib boradi. Kelajakda jamiyatimizning vorislari bo'lgan avlod a'zolari deb bilgan yoshlarimizda axborot madaniyatini shakllantirish bizni davlatimiz va jamiyatimiz oldidagi eng asosiy muammolarimizdan biridir. Bu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat tashkiloti bo'lgan ta'lim muassasalardagi pedagoglarning axborot madaniyatini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan yangi turdagi dasturlarni ishlatish foydalanish kabi yangi usullardan foydalanish zarurati tug'iladi. Davlatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish bugun biz uchun eng katta etibor talab qiladigan ta'lim desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

“Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat tushunchasi zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanish darajasi sifatida tushuniladi.” [1] (Волков С.Н. Социальные и философские проблемы информационного общества. Лань 2022. – 112.с.) Jamiyat axborotni qabul qilishi bevosita sivilizatsiya bilan bog'liqligini yuqoridagi berilgan tarifdan bilishimiz mumkin. Davlat va jamiyat azolarida hamda barchada fuqarolarimizda birdek axborot madaniyatini shakllantirish axborot tushunchasi nima ekanligini yangi texnologiyalardan va usullardan foydalagan xolda tushuntrish zarur. Buning uchun jaxon andozasidan foydalanish, dunyoning nufuzli ta'lim dargohlarida jamiyatshunos olimlar tomonidan ilgari surilayotgan takliflarni o'rganish va ushbu takliflarni o'zimizning mintaletimizga milliyligimizga hamda ijtimoiy muhitimizga moslagan xolda hududlar imkoniyatini inobatga olgan xolda davlat tashkilotlari bo'lgan ta'lim dargohlari bilan kelishish lozim. N.Viner fikricha, “Axborot - tashqi olamga ko'nikish jarayonida undan olingan mazmuni ifodalashdir.”[2] (Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991. -620.с.)

Biz yuqorida takidlagan muommolarga davlatimiz qonunchiligi tashabbusi bilan bir qancha qonunlar loyihalari axborotlashgan jamiyat pirinsplariga mos xolda jamoatchilikka taqdim qilinmoqda.

“O'zbekiston Respublikasi yagona davlat axborot siyosatining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

fuqarolarning soʻz erkinligi va axborotdan foydalanishga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini, xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslarini Oʻzbekistonning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy-gumanitar rivojlanishi toʻgʻrisida xolis axborot bilan taʼminlash;

milliy ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, ular uchun media bozorda teng sharoitlar yaratish, jurnalistlar va blogerlarning huquqlarini himoya qilish, milliy axborot resurslaridan samarali foydalanish va ulardan erkin foydalanishni taʼminlash, ularning sonini koʻpaytirish, Oʻzbekiston axborot sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar axborot xizmatlarining imkoniyatlari va salohiyatini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan oʻzaro hamkorlik orqali ularning ochiqligi darajasini oshirish, fuqarolar, jamiyat va davlatning axborot ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborotni taqdim etishning yangi kanallari va usullaridan foydalanish;

axborot sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, tizimli asosda aholiga mediataʼlimni joriy etish va mediasavodxonligini oshirish;

axborot texnologiyalari sohasida axborot xavfsizligini taʼminlash va jinoyatlarni oldini olish;

Oʻzbekistonda innovatsion bilim va texnologiyalar negizida axborot jamiyatini shakllantirish, axborot xizmatlari sohasi samaradorligini oshirish, mamlakatni global axborot makoniga uygʻunlashuvi va integratsiyasi orqali xalqaro axborot almashinuvi sohasida oʻrnini mustahkamlash;

axborot-telekommunikatsiya sanoati va infratuzilmasini modernizatsiya qilish, axborot yaratish, tarqatish va ulardan foydalanishni taʼminlovchi axborot texnologiyalarini rivojlantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishni hisobga olgan holda milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, axborot jamiyatini qurishning zarur meʼyoriy-huquqiy bazasini shakllantirish.”[3] (<http://uzbekistan-geneva.ch/o%CA%BBzbekistonda-yagona-axborot-siyosati-konsepsiyasi-ishlab-chiqiladi.html>)

NATIJARLAR (PEZYULTATY / RESULTS)

Axborotlashgan jamiyatda texnologiyalar shaxsning shakllanishiga tasiri asoslangan bugungi kun tez oʻzgaruvchanligi bilan oʻtgan zamonlarimizdan farqlanadi. Axborotlashgan jamiyatda davlatning yoshlar maʼnaviy-axloqiy borligʻini himoya

qilishdagi faoliyati doirasida ilmiy izlanish jarayonida mamlakatimizdagi 5 ta oliy o'quv yurtida tahsil olayotganlar doirasida quyidagicha sotsiologik so'rov ishlari olib borildi va undan quyidagicha natijalarga erishildi.

Joriy yilning yanvar, fevral, mart oylarida respublikamizning beshta oliy o'quv yurtida (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) tahsil olayotgan va faoliyat olib borayotgan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda 500 nafardan ortiq respondentlar ishtirok etishdi. 1-savol. Hurmatli respondent aytingchi sizningcha axborot tushunchasi nimani anglatadi?

Hurmatli respondent aytingchi sizningcha axborot tushunchasi nimani anglatadi? deb berilgan savolga respondentlarning 29% OAV beriladigan ma'lumotlar deb javob qaytarishgan bo'lishsa, Shuningdek 43,3% respondent ahamiyatli bo'lgan har qanday ma'lumotlar deb javob qaytarishgan bo'lsa, 22,5% respondent esa biror narsa to'g'risida yozilgan ma'lumotlar tafsiloti deya javob berishgan. 5,2% ishtiokchi savolga javob berishim qiyin degan javob variantini tanlashgan.

2-savol. Siz uchun asosiy bo'lgan axborot manbaini ko'rsating? So'rovda ishtirok etgan respondentlarning 8,6%i uchun Televidenie, Radio asosiy axborot manbai ekanligini qayd etib o'tishgan bo'lsa, 8,6% respondent asosiy axborot manbasi sifatida bosma axborot manbalari (kitob, gazeta, jurnallar) ko'rsatib o'tishgan. 77,8% respondent internet tarmog'i, Ijtimoiy tarmoqlar (Feysbuk, Twitter va boshqa.) mesendjer va sigmentlarni axborot olish manbasi sifatida ko'rsatishgan bo'lishsa, atigi 4,7% respondent bunday manba sifatida Yon atrofimdagi odamlarni ko'rsatib o'tishgan.

3-savol. Siz olgan axborotingzini do'stlaringiz, yaqinlaringiz yoki bo'lmasam yon atrofdagi odamlar bilan ulashasizmi? Deb berilgan navbatdagi savolga respdentlarning 7,8% yo'q javobini belgilagan bo'lsalar, 63,8% respondent esa olgan axborotlarini ba'zan, u qanday axborotligiga qarab degan javobni belgilagan. 27,6% respondent esa olgan axborotlarini albatta ulashishini aytib o'tishgan. Shuningdek mazkur savolga 0,7% respondent javob berishga qiynalishlarini ko'rsatib o'tishgan.

4-savol. Siz uchun yon-atrofdagi axborotlarni olishning qanday usulini ma'qulroq hisoblaysiz? So'rovda ishtirok etganlarining 36,9% axborotni ko'rish orqali olishni ma'qul ko'rishlarini aytib o'tishgan bo'lishsa, 7,9% respondent eshitish orqali qabul qilishni ma'qul ko'rishlarini qayd etib o'tishgan. 31,2% respondent o'qish orqali axborot olishni ma'qul ko'raman deyishgan bo'lishsa, qariyb 24% respondent uchun esa axborotni qanday ko'rinishda olishning farqi yo'qligini qayd etib o'tishgan.

5-savol. Siz uchun do'stlaringiz, yaqinlaringiz oila-mahalla-ta'lim muassasalardagi yoshlarining voqea xodisalarga bergan bahosi qiziqmi? Shu savolga aniqlik kiritish maqsadida respondentlarga berilgan savolga respondentlarning 20,3% ha, albatta, men shunga qarab ular bilan munosabatimni shakllantiraman degan javobni belgilashgan. 18,1% respondent ham yuqoridagi fikrni to'ldirgan holda ha, ularning fikri bilish men uchun qiziq deb ko'rsatib o'tishgan. Faqatgini 45,5% so'rov ishtirokchilar qat'iyat bilan ba'zan, agar bu men uchun ahamiyatli bo'lsa muhim deb javob qaytarishgan bo'lishsa, yana 12,1% respondent yo'q, menga ularning bo'lgan voqealarga bildirgan munosabati qiziq emas degan javob variantini tanlashgan. 4% respondent javob berishga qiynalishlarini ko'rsatib o'tishgan.

6-savol. Siz olayotgan kunlik axborot yangiliklarni boshqa axborot manbalaridan ham tekshirib ko'rasizmi? Degan savolga respondentlarning 3/5 qismi qanday axborot manbaligiga qarab tekshiraman deyishgan bo'lishsa, yana 1/5 qism respondentlar ba'zan tekshirishlarini va bu qanday axborot ekanligiga bog'liqligini aytib o'tishgan. 9,7% respondent yo'q, men olgan axborotimni manbasiga to'la ishonaman deyishgan bo'lishsa, 38,3% so'rov ishtirokchilari imkoniyatdan kelib ha, lekin imkoniyatimdan kelib chiqqan holdaligini aytib o'tishgan. Faqatgina 49% respondent o'zlari oladigan axborotga ba'zan, bu qanday axborotligiga bog'liqligini ta'kidlab o'tishgan. 3% respondent mazkur savolga javob berishim qiyinligini belgilagan.

7-savol. Siz ko'proq jonli muloqotda o'zingizni erkin his qilasizmi yoki internetdagi muloqotdami? So'rovda ishtirok etganlarning 31,6% internet orqali muloqot qilganda o'zlarini erkin his qilishlarini aytib o'tishgan bo'lsalar, aksincha 60,4% respondentlar jonli muloqotda o'zlarini erkin his qilishlarini ko'rsatib o'tishgan. Shuningdek 8% respondent mazkur savolga javob qaytarishmagan. Bizga ma'lumki internet tarmog'idan foydalanishning usullari juda ham ko'p.

8-savol. Internet tarmog'iga nimalar yordamida kirasiz? Keyingi savol orqali biz respondentlarning internet tarmog'iga qaysi vositalar yordamida kirishlarini so'rab murojaat qildik. Respondentlarning 90,3% internetdan foydalanishda bir vaqtning o'zida telefondan foydalanishlarini aytib o'tishgan bo'lishsa, 6% respondent kompyuter (noutbuk, netbuk) orqali vositalari yordamida internet tarmog'iga kirishlari aytib o'tishgan. 1,7% planshet orqali internetga kirishini belgilagan. Yana 1,7% respondent internetdan foydalanmayman degan javobni belgilashgan.

9-savol. Yoshlar ma'naviy axloqiy borlig'ini kiber tahdidlardan himoya qilishda ota-onaning qattiq qo'lligi kerakmi? Savoliga javoban ba'zi odamlar aslida shu ishni qilish kerakmi, yo'qmi, degan savolga ham bormaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda havola etiladigan ma'lumotlarni bezab turgan g'aliz jumlar hamda imloviy xatolar o'sha

tarmoq foydalanuvchisining saviyasi qay darajada ekanligini ko'rsatib turadi. Bu esa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida ham afsuslanish, achinish holatlarini keltirib chiqaradi. Ba'zida esa ijtimoiy tarmoqlar orqali havola etilayotgan asossiz va saviyasiz ma'lumotlarning sanab adog'iga ham etib bo'lmaydi. Respondentlarning 80,9%i ha deb javob qaytarishgan. 13,7% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 5,5% respondent javob berishga qiynalaman deb javob qaytarishgan.

10-savol. Sizningcha, internet va OAV (ayniqsa televideniya)ni yoshlar ma'naviy olamiga salbiy ta'siri bormi? Olib borilgan so'rovnomamiz va axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, 76,7% ha deb javob qaytarishgan. 12,5% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 10,9% respondent javob berishga qiynalaman deb javob qaytarishgan.

11-savol. Televidenie orqali uzatilayotgan behayo reklamalar inson ma'naviy olamiga tasir qiladimi? Dunyoning 30 dan ortiq mamlakati, xususan Avstraliya, Malayziya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi va Yevropaning ko'plab davlatlarida televideniyaedagi reklamalarga ma'lum cheklovlar o'rnatilgan milliy qonun hujjatlari mavjudligini biz turli saytlar va huquqiy hujjatlardan bilamiz. So'rovnomamiz ma'lumotlarga ko'ra, 87,5% ha deb javob qaytarishgan. 5,8% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 6,6% respondent javob berishga qiynalaman degan javob qaytarishgan.

12-savol. Kibermakon (internat olami)dan inson ma'naviy olamini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirish kerakmi? Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlarni jahon media makonida keng targ'ib qilish hamda inson ma'naviyatini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladigan juda ko'plab ma'lumotlar yoritib borilmoqda. Shu bilan birga, milliy mentalitetimizga raxna soluvchi turli ig'volar, g'iybatlar, milliy madaniyatlarning kushandasi bo'lgan "omnaviy madaniyat" niqobidagi tahdid va boshqa illatlar singari xavf solishi hamon davom etmoqda. Savolnomamizda qatnashgan respondentlarning 86,3% ha deb javob qaytarishgan. 4,7% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 9% respondent javob berishga qiynalaman degan javob qaytarishgan.

13-savol. Axborotlashgan jamiyatda oila, mahalla, ta'lim muassasalarining fuqarolar va yoshlar ma'naviy-axloqiy olamini himoya qilishdagi faoliyatini shakllantirish kerakmi? Savolnomamizga respondentlarning 84,8% ha deb javob qaytarishgan. 5,4% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 9,7% respondent javob berishga qiynalaman degan javob qaytarishgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat kelajagi bo'lgan yoshlar uchun ularning xulq-atvori, ahvoli jamiyat va muhitdagi siyosiy, ijtimoiy-psixologik vaziyatning ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Bunda ommaviy kompyuter savodxonligidan ommaviy kompyuter foydalanuvchilarini tayyorlash orqali kompyuter savodxonligini bartaraf etish, shuningdek, ushbu sohalarda mutaxassislarni tayyorlash asosiy shartlardan biridir. Axborotlashgan jamiyatda davlatning yagona axborot siyosatini oilada otonaning mas'uliyatsizligi, nazoratsizligi natijasida bolalar noto'g'ri tarbiya olib, jamiyatda zararli insonlar safida bo'lib voyaga yetish extimoli katta. Ta'lim va tarbiyasiz jamiyat tartibini barqaror qilib bo'lmaydi.

Insonlarning ma'rifatli bo'lishi, inson aql-zakovati, jamiyatdagi mavqei uning oilada olgan ta'lim-tarbiyaga bog'liqligi o'tkazilgan so'rovnomamizda ham o'z isbotini topdi. Ta'lim - bu oiladagi engg katta meros bo'lishi jamiyat va davlatda insonlar xulqini ifodasi sifatida ko'rinishi bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, "O'zbekiston", 2017.
2. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997-yil 29-avgust // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – B. 20-29.
3. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) /O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 80 b.
4. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi -117-son qarori.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.:Ma'naviyat, 2008, -108 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 307.
7. Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991. -620.c
8. Волков С.Н. Социальные и философские проблемы информационного общества. Лань 2022. – 112.c.
9. <http://uzbekistan-geneva.ch/o%CA%BBzbekistonda-yagona-axborot-siyosati-konsepsiyasi-ishlab-chiqiladi.html>
10. www.lex.uz
11. <https://www.ziyo.uz/>
12. <https://www.ziyonet.uz/>